



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI NURAFSHON SHAHAR HOKIMINING QARORI

### Nurafshon sh., Toshkent yo‘li ko‘chasi, 55a uy

2022 - yil 16 - may

195-10-213-Q/22

Nurafshon shahar hokimligi

#### Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-apreldagi 259-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 195-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 10-maydagi 259-10-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 10-maydagi 259-10-0-Q/22-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzurida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik), Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)larda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazlari (keyingi o‘rinda – Markaz) tashkil etilganligi;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi (keyingi o‘rinda – hokim yordamchilari) lavozimi ta‘sis etilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash vatadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-62-sonli qaroriga muvofiq:

Agentlik tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish va baholab borish imkonini beruvchi “Onlayn Mahalla” elektron platformasini ishga tushurish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan:

a) quyidagilar:

Agentlikning maqomi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish, shuningdek, Agentlik rahbarlarining funksional vazifalari hamda faoliyat yuritish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi Nizom;

Markaz faoliyatini tashkil etish, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va javobgarligini belgilashni nazarda tutuvchi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom;

hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlarini nazarda tutuvchi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi namunaviy Nizom;

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizom;

“Onlayn Mahalla” elektron platformasiga ma’lumotlar bazasi integratsiya qilinadigan hamda ushbu integratsiyalashgan tizimdan real vaqt rejimida (onlayn) foydalana oladigan davlat organlari va tashkilotlarining ro‘yxati tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan quyidagi tartib o‘rnatilishi inobatga olinsin, unga muvofiq:

hokim yordamchisi kredit, subsidiya, grant va moddiy yordam turlari bo‘yicha kelib tushayotgan har bir murojaatni chuqur o‘rgangan holda, uch ish kunida murojaat muallifiga va tegishli tashkilotga belgilangan tartibda ijobiy tavsiya yoki rad etish to‘g‘risida xulosani yuboradi;

hokim yordamchilari beradigan tavsiyalar tegishli idora va tashkilot tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi hamda tavsiyalarni qanoatlanirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi, bunda rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, rad etishning sabablari aniq va batafsil bayon etilgan holda hokim yordamchilariga xulosa yuboradi.

5. Nurafshon shahar hokimining 2019-yil 23-oktabrdagi 1096-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazi (F.Soyibov) ushbu qaror ijrosini ta‘minlanishi yuzasidan shaxsan mas‘ul etib belgilansin.

Nurafshon shahar Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazi to‘g‘risidagi Nizom 1- ilovaga muvofiq;

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha Nurafshon shahar hokimining yordamchisi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.b. K.Alkarov zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi



M.Saliyev

Nurafshon shahar hokimining  
2022 yil 16 maydagi  
195-10-213-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

## **Nurafshon shahar Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazi to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazining (keyingi o'rinlarda – Markaz) maqomi, faoliyatini tashkil etish, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va javobgarligini belgilaydi.

2. Markaz yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda shahar hokimligi tarkibida tashkil etiladi.

3. Markaz faoliyati shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Agentlikning hududiy boshqarmasi) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Markaz tegishligiga ko'ra shahar hokimligiga hamda Agentlikning Toshkent viloyati boshqarmasiga bo'ysunadi va o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

4. Markaz Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha shahar hokimiyordamchilarining (keyingi o'rinlarda – hokim yordamchilari) faoliyatini muvofiqlashtiradi.

5. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining Qarorlariga, shahar hokimligi farmoyish va qarorlari hamdaboshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

6. Markaz o'z vakolati doirasida shahar hokimligining tarkibiy bo'linmalari, hokim yordamchilari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

#### **2-bob. Markazning vazifa va funksiyalari**

7. Quyidagilar Markazning asosiy vazifa va funksiyalari hisoblanadi:

Agentlikning hududiy boshqarmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi va o'z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarga doir shahar hokimligining tarkibiy bo'linmalari, hokim yordamchilari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasiga oid qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish;

hokim yordamchilarining xizmat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan vazifalar va ishlarga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash;

hokim yordamchilariga Mahallalarni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqilishida takliflar berish;

aholi va tadbirkorlik sub'ektlari muammolari bilan ishlash va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda hokim yordamchilariga amaliy ko'maklashish;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi hisobidan beriladigan subsidiyalar bo‘yicha hokim yordamchilarining tavsiyalari yuzasidan xulosalar berish;

hokim yordamchilari tomonidan Mahallalarda aniqlangan mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning mavsumiy ishchilarga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, ishsizlarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga joylashtirishda hamkorlik qilish;

Shahar hokimi, Prokuratura, Ichki ishlar va Davlat soliq xizmatining hududiy organlari rahbarlari rahbarlik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

Mahallalarda hokim yordamchilari tomonidan aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida shahar hokimligi, tegishli idora va tashkilotlar rahbarlari hamda yetakchi tadbirkorlar ishtirokida uchrashuvlar tashkilotish;

hokim yordamchilari faoliyatidagi muammolarni kompleks o‘rganish, tahlil etish va tizimli hal qilish choralarini ko‘rish, axborot-tahliliy materiallar bilan ta‘minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish choralarini ko‘rish;

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolarini o‘rganib, ularga aniq yo‘nalishlar (kasb-hunarga o‘qitish, ish bilan ta‘minlash, tadbirkorlikka va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatiga jalb etish, moddiy yordam berish) bo‘yicha manzilli ko‘maklashish;

amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘zining faol ishtiroki, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tashabbuslari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘layotgan, o‘ziga birlashtirilgan mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida samarali mehnat qilayotgan hokim yordamchilarini “Yangi O‘zbekiston islohotchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlashga oid nomzodlar bo‘yicha dastlabki takliflarni tayyorlash.

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Markazning huquqlari va javobgarligi**

8. Markaz o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalar bo‘yicha quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun shahar hokimligining tarkibiy bo‘linmalari, hokim yordamchilari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlaridan belgilangan tartibda ma‘lumot so‘rash va olish;

o‘z vakolati doirasida seminarlar, ko‘rgazmalar, uchrashuvlar tashkil etish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunday tadbirlarda ishtirok etish;

mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq faoliyat yo‘nalishlari bajarilishida hamda tezkor hal etishni talab qiladigan masalalar yuzasidan taqdimnoma kiritish;

hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan uslubiy materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

tadbirkorlik sohasining dolzarb va istiqbolli rivojlantirish muammolarini ishlab chiqish maqsadida ishchi guruhlar tuzish;

mahallalarda aniqlangan muammo va kamchiliklarning bartaraf etilish borasidagi vazifalar ijrosi

yuzasidan monitoring olib borish.

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Markaz:

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar sifatli hamda o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

hokim yordamchilari tomonidan aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish hamda umumlashtirish asosida mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish talablariga rioya etilishini ta'minlash;

hokim yordamchilari va Markaz tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Agentlikning hududiy boshqarmasiga ma'lumot kiritib borish;

o'z faoliyati sohasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo'l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

#### **4-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish**

10. Markaz faoliyatiga boshlig'i rahbarlik qiladi.

Markaz boshlig'i Agentlikning hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan Agentlik bilan kelishgan holda shahar hokimi taqdimnomasi asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Markaz xodimlari shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

11. Markaz boshlig'i:

Markaz faoliyatiga shaxsan javob beradi;

Shahar hokimligining tarkibiy bo'linmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan munosabatlarda Markaznomidan ish yuritadi;

Mahallalar kesimida to'plangan muammolar va murojaatlarni muvofiqlashtirib, ularni hal etishda shahar hokimining tegishli o'rinbosarlari, sektor rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi;

Markaz xodimlari mehnatini moddiy rag'batlantirish choralarini ko'radi;

o'z vakolati doirasida xodimlar tomonidan ijro etilishi shart bo'lgan tegishliko'rsatmalar beradi;

o'z vakolati doirasida boshqa funksiyalarni bajaradi.

Amalga oshirilgan ishlar natijadorligi yuzasidan har chorakda xalqdeputatlari shahar Kengashida hisobot berib boradi.

12. Markaz (yillik, choraklik) ish rejasi va Markaz boshlig'iining shaxsiy ishrejasi shahar hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

13. Markaz xodimlariga shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikniqisqartirish bo'limi xodimlari uchun belgilangan va Davlat budjeti mablag'larihisobidan moliyalashtiriladigan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etiladi.

14. Markaz tuzilmasiga muvofiq Markaz shtat jadvali shahar hokimitomonidan tasdiqlanadi.

#### **5-bob. Yakunlovchi qoida**

15. Markaz qonunchilikda belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi vatugatiladi.

Nurafshon shahar hokimining  
2022 yil 16 maydagi  
195-10-213-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

**Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha Nurafshon shahar hokimining yordamchisi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini

ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimiyordamchisining (keyingi o'rinlarda – hokim yordamchisi) vazifa va funksiyalari, huquqlari, faoliyatini tashkil etish hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Hokim yordamchisining faoliyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hamda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan muvofiq lashtiriladi.

3. Hokim yordamchisi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga va qonunchilikka amal qiladi.

**2-bob. Hokim yordamchisining vazifa va funksiyalari**

4. Hokim yordamchisining asosiy vazifa va funksiyalari quyidagilardan iborat:

Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uning rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali Mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv Markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

Mahalladagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

Mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishdako'maklashish;

Mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosidagi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik



bilan mustaqilshug‘ullanish tajribasiga ega bo‘lmagan fuqarolar o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun ularga biriktirish;

aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitidadehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug‘chilik, ko‘chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

Mahalladagi ish bilan band bo‘lmagan aholining tadbirkorlik va doimiydaromad keltiruvchi faoliyat bilan shug‘ullanishini yo‘lga qo‘yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ilash, qishloq xo‘jaligi kooperativiga a‘zo bo‘lish, asbob-uskuna va mehnatqurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to‘lovi hamda kasb-hunar vatadbirkorlikka o‘qishi uchun subsidiyalar olishda ko‘maklashish;

kreditlar va subsidiyalar ajratish ko‘zda tutilgan har bir loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini chuqur o‘rgangan holda mas‘ul idora vatashkilotlarga o‘z tavsiyasini berish;

Mahalladagi bo‘sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangantartibda tadbirkorlik sub’ektlariga ajratish bo‘yicha mas‘ul idora va tashkilotlarga takliflar kiritish;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo‘sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ajratish va boshqalar) mas‘ul idora va tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkilotish;

Mahalladagi ishsiz aholini ish bilan ta‘minlash, ularga doimiy daromad manbaini yaratishga ko‘maklashish uchun ustuvor ravishda Mahalladagi muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlik sub’ektlari bilan hamkorlikda faoliyatini olibborish;

hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida iqtisodiyot va investitsiya komplekslariga kiruvchi vazirlik, idoralar, tijorat banklarining mas‘ul xodimlari (respublika vakillari) bilan birgalikda o‘ziga biriktirilgan Mahallani rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va ijrosini ta‘minlash;

ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish.

Hokim yordamchisi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifa va funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Hokim yordamchisining huquq va javobgarligi**

5. Hokim yordamchisi o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalar bo‘yicha quyidagi huquqlarga ega:

davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining tumanbo‘linmalarida hamda mas‘ul idora va tashkilotlardan ma‘lumotlar so‘rab olish;

o‘z vakolati doirasida seminarlar, ko‘rgazmalar, uchrashuvlar tashkil etish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunday tadbirlarda ishtirok etish;

o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yuzasidan tuman hokimligi va Markazga takliflar kiritish;

o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalar bajarilishida Mahalla fuqarolaryig‘inlari bilan hamkorlik olib borish;

davlat tomonidan imtiyozli kredit asosida loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha dastur loyihalarini shakllantirish jarayonida qatnashish;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalar bajarilishida barcha vazirlik vaidoralarning hududiy bo'linmalari birinchi rahbarlaridan amaliy yordam so'rash;

hokim yordamchisi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlargaham ega bo'lishi mumkin.

6. Hokim yordamchisi:

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Mahallani rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqiladigan "yo'l xaritasi"ni ijrosini ta'minlash;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlaryuzasidan tuman hokimiga hamda Markazga ma'lumot kiritib borish;

"Onlayn Mahalla" elektron platformasiga barcha ma'lumotlarni kiritib borish;

faoliyatining natijalari bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning samarali ijrosi yuzasidan javobgar hisoblanadi.

#### **4-bob. Hokim yordamchisi faoliyatini tashkil etish**

7. Hokim yordamchisi lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlatsoliq qo'mitasi, tijorat banklari, iqtisodiy va investitsiya komplekslariga kiruvchi idoralar, ularning hududiy bo'linmalarida bo'lim (sho'ba) boshlig'idan past bo'lmagan lavozimda ishlovchi rahbar xodimlar, shuningdek, mahalliy hokimlikning rahbar xodimlaridan tayinlanadi.

8. Hokim yordamchisi viloyat hokimi boshchiligidagi tanlov komissiyasiorqali ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

9. Hokim yordamchisi lavozimiga nomzodning intiluvchanligi, maqsadgayo'nalganligi, qobiliyati, tajribasi kabilarni inobatga olgan holda tadbirkorlar, boshqa soha vakillari, faol yoshlar, rahbarlik lavozimida faoliyat yuritmayotgan xodimlar va oliy ma'lumotga ega bo'lmagan fuqarolar ham qabul qilinishi mumkin.

10. Hokim yordamchisining oylik ish haqi miqdori ular biriktirilgan Mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bunda:

xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan Mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo'lgan Mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6,5 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo'lgan Mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 7 baravari miqdorida to'lab boriladi.

11. Hokim yordamchisiga to'lanadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdori nomzodning ushbu lavozimga ishga qabul qilingunga qadar avvalgi ish joyi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan taqdirda, yetishmagan qismi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan kompensatsiya qilib boriladi.

12. Hokim yordamchisi Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan kerakli mebel bilan jihozlangan alohida xona, internet tarmog'iga ulangan kompyuter jamlamasi bilan ta'minlanadi.

13. Faoliyati davomida yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishgan hokim yordamchisi "Yangi O'zbekiston islohotchisi" ko'krak nishoni bilantaqdirlanadi.

**5-bob. Yakunlovchi qoida**

14. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikdabelgilangan tartibda javob beradilar.